

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 13 415,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 9,1 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2026-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 108,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,0 % ga yetdi.

## 2026-yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2026-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>11 295,4</b>	<b>13 415,5</b>	<b>109,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 088,0	13 196,8	109,1
mahsulotlarga sof soliqlar	207,4	218,7	111,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>11 088,0</b>	<b>13 196,8</b>	<b>109,1</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>2 466,0</b>	<b>3 014,0</b>	<b>109,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 204,0</b>	<b>2 615,2</b>	<b>109,2</b>
sanoat	1 025,6	1 277,9	108,7
qurilish	1 178,4	1 337,3	109,7
<b>xizmatlar</b>	<b>6 418,0</b>	<b>7 567,6</b>	<b>108,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 327,6	2 764,3	112,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	714,8	914,3	118,4
boshqa xizmat tarmoqlari	3 375,6	3 889,0	104,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 4 445,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,8 % ga yuqoridir.

## Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,2	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1,8	1,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>22,2</b>	<b>22,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>19,8</b>	<b>19,8</b>
sanoat	9,2	9,7
qurilish	10,6	10,1
<b>xizmatlar</b>	<b>58,0</b>	<b>57,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	21,0	20,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	6,9
boshqa xizmat tarmoqlari	30,6	29,6



2026-yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 22,8 % ni, sanoat tarmog‘i 9,7 % ni, qurilish 10,1 % ni va xizmatlar sohasi 57,4 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,1 f.p. (2025-yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,8 f.p. (2025-yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2025-yilning yanvar-martida – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 5,0 f.p. (2025-yilning yanvar-martida – 3,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2025-yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) ga ko'paydi .

## 2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 109,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 22,8 %), sanoatda – 108,7 % (9,7 %), qurilishda – 109,7 % (10,1 %), xizmatlar sohasida – 108,8 % ni (57,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,0 % (20,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,4 % (6,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,5 % dan (29,6 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 108,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 114,7 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 111,4 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 9 623,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2025-yilning yanvar-mart oylarida – 8 120,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 72,9 % ni (2025-yilning yanvar-mart oylarida – 73,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2025- yil

9 623,8

72,9 %

2026- yil

8 120,5

73,2 %

